

**EKOLOGIK DISKURS VA UNING RUS TILSHUNOSLIK ILMIDAGI TADQIQOT
NATIJALARI**

Manzura Yusupova Nuritdin qizi

“Sevenplus” NTM ingliz tili o‘qituvchisi

magistrmanzura@gmail.com

+998 97 404 90 80

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik diskurs tushunchasi va uning rus tilshunoslik olamidagi rivojlanish holati tahlil qilinadi, ya’ni kommunikativ-pragmatik, kognitiv, mediakurs va lingvomadaniy yondashuvlar asosidagi izchil tahlil natijalari borasida so‘z boradi. So‘nggi yigirma yil ichida yaratilgan ommaga ochiq ilmiy nashrlarning kontent tahlili asosida ekologik diskurs hodisasi tavsiflanadi va tilshunoslikning rus segmentida o‘rganish jihatlari aniqlanadi. Ushbu ilmiy sohani rivojlantirishda islohtalab mavzular va muammolarga oydinlik kiritiladi. Shu bilan birgalikda, rus tilshunosligida ekologik diskurs masalasi nafaqat ekologik matnlar yig‘indisi, balki rus jamiyatining tabiatga bo‘lgan munosabatini aks ettiruvchi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida yoritiladi.

Kalit so'zlar: ekolingvistika, ekologik diskurs, ekologik matnlar, rus tilshunosligi.

**ECOLOGICAL DISCOURSE AND ASPECTS OF ITS RESEARCH IN RUSSIAN
LINGUISTICS**

Abstract: This article examines the concept of ecological discourse and the current state of its development within Russian linguistics, focusing particularly on the results of systematic analyses conducted through communicative-pragmatic, cognitive, media-discursive, and linguacultural approaches. Based on a content analysis of open-access scholarly publications produced over the last two decades, the study characterizes the phenomenon of ecological discourse and identifies the principal directions of its investigation within the Russian segment of linguistic studies. Furthermore, the paper highlights problematic and underexplored issues that require further clarification and scholarly reconsideration for the advancement of this academic field. In addition, the article emphasizes that, within Russian linguistics, ecological discourse is interpreted not merely as a collection of environmentally oriented texts, but also as a sociocultural phenomenon reflecting Russian society’s attitude toward nature.

Keywords: Eco linguistics, ecological discourse, ecological texts, Russian linguistics.

Kirish

XX asrda ilm-fan va ilg‘or texnologiyalarning jadal sur‘atlarda rivojlanishi ekologik xarakterdagi muammolarning keskin ortishiga sabab bo‘ldi. “Ekologik inqiroz”

tushunchasining vujudga kelishi, texnogen falokatlar, atmosferadagi tabiiy jarayonlarning buzilishi, tuproq ifloslanishi, aholining ko‘payishi va yana ko‘plab holatlar so‘zimizning isbotidir. Ekologik masalalarning oshkoraligi matbuot matnlarida, shuningdek, ekologik mavzuga bag‘ishlangan siyosiy chiqishlarda o‘z ifodasini qisman topdi. Shu tariqa, butunlay yangi turdagi diskurs va unga xos tushuncha – “ekologik diskurs” yuzaga keldi. Alqissa, ushbu maqolada aynan rus olimlarining islohot va tadqiqot natijalari, jumladan, Y.V. Ivanova, N.A.Krasilnikova, A.V. Zaytseva, M.V Golomidova va A.Y.Gladiy, V.A.Gaputina va A. S Mamontov, N.N Belozerovalar, N.V.Drozhzhikh, N.V.Labunov, N.N Likovalev fikr-mulohazalari borasida so‘z yuritiladi. Shuningdek, boshqa qator rus olimlari, A.V. Kravchenko, A.P. Skovorodnikov, N.N. Kislitsina hamda Y.A.Fomenkolarning til ekologiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar bo‘yicha tilning “ifloslanishi” masalasi yoritiladi.

Fandagi yangi atamaga ilmiy e‘tibor kuchaygani sari u gumanitar tadqiqotlar markazida, xususan, zamonaviy tilshunoslar tomonidan ko‘plab talqinlarga ega bo‘ldi. Ekologik diskurs zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishi – ekolingvistikaning o‘rganish obyekti bo‘ldi, u ijtimoiy, psixologik va falsafiy lingvistik yo‘nalishlarning chorahalarida shakllandi. **Y.V. Ivanova** ta’kidlaganidek: “Ekolingvistika - ekologik diskursning asosiy xususiyatlari ekologik muammolarni yoritishga yo‘naltirganlik, inson va tabiat munosabatlarini aks ettiruvchi, baholovchi va emotsional birliklarning faol qo‘llanilishi, ekologik ong va ekologik madaniyatning shakllanishiga xizmat qiluvchi, ommaviy ahborot vositalari, siyosiy nutq, ilmiy matnlar, internet kommunikatsiyasida keng qo‘llanilish kabi xususiyatlarga egadir. [15, b. 135].

Hozirgi vaqtda ekolingvistika ikki yo‘nalishga bo‘linadi: Ekologik lingvistika, gumanitar va ijtimoiy fanlarda umumiy “ekologik burilish”ning bir qismi sifatida tadqiq etiladi; u til va atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarning, shuningdek ularning o‘zaro ta’sir mexanizmini atroflicha tafakkur yuritishga o‘rganuvchilar uchun poydevor vazifasini bajaradi. Bu yo‘nalishning tashabbuskori amerikalik tilshunos Einar Haugenning "Til ekologiyasi" asari, ya'ni "Haugen yondashuvi" bilan boshlangan. Olim til ekologiyasi, tilning atrof-muhitga ta'sirini o'rganishni ushbu fan tilshunosligi va usullariga asoslanib o'rganadi. Bu sohadagi eng ajralib turadigan asar britaniya- avstraliyalik tilshunos Maykl Hallidayning "Ma'noning yangi usullari: Amaliy lingvistikaga chaqiriqlar" asaridir. Lingvistik ekologiya til va ekologiya o'rtasidagi o'zaro ta'sirni, shu bilan birgalikda, inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirda yuzaga keladigan muammolarni til orqali aks ettirishni o'rganadi. Y.V. Ivanova ekolingvistik tadqiqotning bu yo‘nalishini "ekologik tafakkur" deb atash ko‘proq mantiqiy bo‘lishini ta’kidlaydi. Shuningdek, tadqiqotchi ekologik diskursni yozma va og‘zaki ekologik mavzuga doir matnlar uyg‘unligi deb atab, matndagi til jamiyatning tabiatga bo‘lgan munosabatini shakllantira olishini ta’kidlagan.

Asosiy tadqiqot va natijalar haqida gapirar ekanmiz, “Ekologik diskurs” tushunchasi mavjud bo‘lgan davr mobaynida ushbu atama uchun yagona va keng e’tirof etilgan ta’rifga erishilmaganini ta’kidlab o‘tishimiz joizdir. **N. A. Krasilnikova** ekologik diskursni «ekologik harakatlarning siyosiy hayotiga chuqur tatbiq etilgan nutq» deb belgilaydi. Shu

20-Iyun, 2026-yil

bilan birgalikda, ekologik harakatlar diskursini, ekologik faollikda nutqiy strategiyalar, ekologik mavzularda siyosiy kommunikatsiya mavzularini puxta o‘rganib, ushbu diskurs turiga pragmatik yondashgan [Golomidinova M.V]. **A.V. Zaytseva** esa ushbu tushunchani funksional birliklarini o‘rganib, ekologik matnlar janrlari, ushbu diskurs vazifalari va ekologik ongni til orqali shakllantirish usullari haqida atroflicha izlangan. Uning takidlashicha “Ekologik diskursning asosiy funksiyasi jamiyatning ekologik dunyoqarashini shakllantirish” deb hisoblaydi, ya’ni, «turli funksional uslublar va janrlardagi og‘zaki va yozma matnlarning to‘plami, ekologik mavzulardagi muloqot vaziyatlari bilan belgilanadi». **V.A.Gaputina**, ekologik diskurs turli janrdagi matnlarni birlashtirishini ta’kidlab, uning asosiy funksiyasi sifatida ekologik ongni shakllantirishni qayd etadi. V.I. Qorixo’djayev ekologik diskursni matnlarda namoyon bo‘ladigan, fikrni ifodalash jarayoni sifatida tushunadi, bu matnlar esa ma’no yaratish va tushunishning umumiy kognitiv strategiyalari bilan bog‘langan bo‘lib, nafaqat ma’noni yetkazish va shakllantirish, balki boshqa matnlarni dekodlash uchun xizmat qiladi. **A. S Mamontov** tomonidan ta’riflangan diskurs kategoriyalariga tayangan holda, N.N Belozeroва funksional-uslubiy tafovut yordamida ekologik diskursning beshta asosiy turini (janrini) ajratib ko‘rsatadi. Muallif ularga quyidagilarni kiritadi: **1) ilmiy diskurs** – ekolog olimlar tomonidan yaratilgan matnlar; **2) media diskursi** (publitsistik, ommaviy-informatsion, ommaviy-media yoki media), asosan jurnalistlar tomonidan yaratilgan va OAV orqali tarqatiladigan matnlar; **3) diniy-va’zxoniy diskurs** – diniy yo‘nalishdagi og‘zaki va yozma matnlar; **4) badiiy diskurs** – badiiy adabiyot asarlari. N.V.Drojashix ekologik diskursning yadro qismini ilmiy diskurs deb hisoblashni taklif qiladi. Media diskursini u yaqin periferiyaga kiritadi. Uzoq periferiyada esa badiiy va diniy-nazorat diskurslar, shuningdek, ba’zan ekologik mavzuda muloqotda ishtirok etadigan oddiy odamlar tomonidan yaratilgan matnlar joylashgan. Bunday matnlar ekologik va kundalik diskurslarning kesishgan nuqtasida joylashadi [15, S. 136]. Shu bilan birga, ekologik diskursning uslubiy shakllari ko‘pincha bir-birini kesib o‘tishi tadbirini hisobga olish muhimdir, chunki ularning chegaralari noaniq. **N.N Likova** esa shuni muhokama qiladi: ilmiy adabiyotda “ekologik diskurs” tushunchasining paydo bo‘lishi bilan ekologik matnlarning tipologiyasini ishlab chiqish zaruriyati ham yuzaga kelgan. U nemis adabiyotidagi vakolatli tipologiyaga murojaat qiladi – S. Gepferix tipologiyasi, unda kommunikativ-pragmatik funksiyaga asoslanib, **4 xil maxsus ekologik matn turlari** ajratilgan: **1) normativ huquqiy matnlar; 2) taraqqiyot va yangi yutuqlarni amalga oshirishga qaratilgan matnlar; 3) o‘quv matnlari; 4) ma’lumotli matnlar**. Shuningdek, olim o‘z ishlarida ekologik diskursning asosiy maqsadi insoniyatning tabiat va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish ekanligini ta’kidlaydi. Uning aksiologik tomoni universal va milliy qadriyatlarni o‘z ichiga oladi – sayyoramizning o‘ziga xosligi va go‘zalligini tushunish, uni himoya qilish va daxlsizlik zarurligini anglashga chorlaydi. Shuningdek, filolog kommunikatsion vazifalarni amalga oshirishning asosiy strategiyalarini quyidagicha ajratib ko‘rsatadi: **"axborot, yo'naltiruvchi, da'vat, tushuntirish, baholash"**.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki:

20-Iyun, 2026-yil

1. Rus ekologik diskurs mavzusida olib borilgan tadqiqotlarda bir nechta tendensiyalar kuzatiladi. Birinchidan, ushbu turdagi diskursning xususiyatlari, uning janrlari va ularning o‘ziga xosliklarini tadqiq qilish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Ikkinchidan, ekologik leksika va grammatika, shuningdek, ularning siyosiy va jamoat ritorikasiga ta‘sirini o‘rganishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Uchinchidan, ekologik diskursning lingvistik jihatlar bilan ekologik ong va xulq-atvorni shakllantirish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik faol o‘rganilmoqda.

2. Hozirda atrof-muhit diskursining yagona kelishilgan ta‘rifi mavjud emas, ko‘pincha mualliflar ta‘rifni o‘z tadqiqotlarining yo‘nalishi asosida shakllantiradilar. Shuningdek, eng ko‘p o‘rganilgan atrof-muhit nutq uslublari ilmiy va media hisoblanadi, san‘at va diniy targ‘ibot kabi funksional-uslubiy ekologik diskurs yo‘nalishlari yanada ko‘proq e‘tibor talab qiladi. Bu turdagi nutqda idiomalar, polisemiya, diktum va uslubni amalga oshirishga bag‘ishlangan birorta ham asar yo‘q. Shu jihatdan, tabiat diskursini takomillashtirish maqsadida fanga oid lug‘atlar yetarlicha rivojlanmaganligi ko‘zga tashlanadi.

3. Tarjima xususiyatlari masalasi yetarlicha o‘rganilgan.

4. Ikki yoki undan ortiq til materiallari asosida o‘tkaziladigan taqqoslovchi tadqiqotlar yetishmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Басинская М.В. Новая лексика в современном политико-экологическом дискурсе английского языка / М.В. Басинская // Язык. Культура. Общество. Актуальные вопросы, методы исследования и проблемы преподавания. — М.: Квант Медиа, 2021. — С. 7-14.

2. Басинская М.В. Исследование лексико-семантических особенностей экологического дискурса в рамках языковой экологии / М.В. Басинская // Вестник МГЛУ. — 2014. — №20 (706). — С. 32-40.

3. Быкова И.А. Экологический дискурс в аспекте межъязыкового сопоставления и перевода / И.А. Быкова, Е.А. Нотина // Вестник МГЛУ. — 2015. — №27 (738). — С. 16-25.

4. Гашимов Э.А. Экологический дискурс в лингвистических описаниях / Э.А. Гашимов // Успехи современной науки. — 2016. — №9. — С. 44-46.

5. Громорушкина А.А. Концептуальная метафора в экологическом дискурсе СМИ / А.А. Громорушкина // Вестник МГЛУ. Гуманитарные науки. — 2019. — №7 (820). — С. 91-99.

6. Гураль С.К. Лингвистические аспекты формирования профессионального экологического дискурса и экологического сознания в системе высшего образования / С.К. Гураль, Г.И. Петрова, О.С. Головкин // Вестник ПНИПУ. Проблемы языкознания и педагогики. — 2018. — №3. — С. 127-138.

20-Iyun, 2026-yil

7. Гусейнова И.А. Предметно-специальный глоссарий: опыт создания и перспективы использования (на материале глоссария «Экологический дискурс: 100 понятий») / И.А. Гусейнова // Вестник МГЛУ. — 2011. — № 624. — С. 71-79.
8. Зайцева А.В. Коммуникативные стратегии экологического дискурса ФРГ / А.В. Зайцева // Вестник ИГЛУ. — 2013. — №4 (25). — С. 244-250.
9. Зайцева А.В. Разнообразие виртуальных жанров экологического дискурса ФРГ (на примере интернет коммуникации на экологические темы) / А.В. Зайцева // Филологические науки. Вопросы теории и практики. — 2022. — №8. — С. 2573-2579.
10. Зайцева А.В. Типология текстов экологического дискурса ФРГ: автореф. ... дис. канд. филол. наук / А.В. Зайцева. — Смоленск, 2014. — 22 с.
11. Зайцева А.В. Формирование экологического сознания как основы экологической картины мира (на примере экологического дискурса ФРГ) / А.В. Зайцева // Филологические науки. Вопросы теории и практики. — 2021. — Т.3. — №9. — С. 2754-2761.
14. Иванова Е.В. Когнитивное моделирование образа природы в медийном экологическом дискурсе / Е.В. Иванова // Вестник ЧелГУ. — 2009. — №7 (145). — С. 65-72.
15. Иванова Е.В. К проблеме исследования экологического дискурса / Е.В. Иванова // Политическая лингвистика. — 2007. — №3 (23). — С. 134-137.
16. Иванова Е.В. Метафора в экологическом дискурсе / Е.В. Иванова // Жанры и типы текста в научном и медийном дискурсе. — Орел: ОГИК, 2006. — С. 70-76.
17. Иванова Е.В. Метафорическая концептуализация природных катастроф в экологическом дискурсе (на материале медийных текстов): автореф. дис. ... канд. фил. наук / Е.В. Иванова. — Челябинск, 2007. — 24 с.